

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

11-maxsus
son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ S/11 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.;

Jabborova Charos Aminovna - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Qodirova Muqaddas Tog'ayevna - filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSIOLOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

07.00.00 – TARIX FANLARI*Rahmankulova Adolat Xushbakovna*

ПРОБЛЕМЫ РЕАБИЛИТАЦИИ НАСИЛЬСТВЕННО ПЕРЕСЕЛЕННЫХ НАРОДОВ

В УЗБЕКИСТАН В 1930 – 1940-е ГОДЫ..... 11-19

Назирхожаев Мухаммадалихожа Касимхожаевич

ФОРМИРОВАНИЕ И ОРГАНИЗАЦИЯ ЛАГЕРЕЙ ДЛЯ СОДЕРЖАНИЯ ЯПОНСКИХ

ВОЕННОПЛЕННЫХ В СОВЕТСКОМ СОЮЗЕ..... 20-29

Kaypova Malika Dautbay qizi

MUSTAQILLIQ YILLARIDA TURIZM SOHASIDAGI ISLOHOTLAR..... 30-33

Sobirova Dilfuza, Mirzaaxmedov Xabibullo, Odiljonov Xayitali

QO'QON XONLIGINING DIPLOMATIK ALOQALARI 34-39

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI

TARIXSHUNOSLIGI 40-47

Сапарбаев Бунёд Хуррамбек оглы

ДИПЛОМАТИЯ И ТОРГОВЛЯ НА ПЕРИФЕРИИ ИМПЕРИЙ: ВЗАИМООТНОШЕНИЯ

ХИВИНСКОГО ХАНСТВА И РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ПЕРИОД ПРАВЛЕНИЯ

МУХАММАД РАХИМХАНА I (1806–1825) 48-54

Рузибоев Самандарбек, Ахмадбекова Ўғилой

НАУЧНО-ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПРОИЗВЕДЕНИЯ АБУ РАЙХОНА БЕРУНИ

«АЛ-АСАР АЛЬ-БАКИЯ»: МЕТОДОЛОГИЯ, ИСТОЧНИКИ И КУЛЬТУРНО-

ХРОНОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ 55-64

Tilovov Mirqosim Amanturdiyevich

OLTINSOY TUMANI ARXEOLOGIK XARITASI 65-70

Shamshidinov Baxriddin Sharobiddin o'g'li

O'ZBEKISTONDA NEFT VA GAZ SANOATI TARIXI (1900-1950 YILLAR) 71-76

Abdurasulov Akmaljon

TURKISTONDA MATBAACHILIKNING VUJUDGA KELISHIDAGI HAMKORLIK

ALOQALARI TARIXI..... 77-86

Abatov Aydos

QORAQALPOG'ISTONDA SANOATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH

BOSQICHLARI (XX ASR II YARMI) 87-90

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI*Pirmatova Farangiz Ma'rufjonovna*

THE EFFECTS OF GREEN ECONOMY IMPLEMENTATION ON ECONOMIC GROWTH

IN DEVELOPING COUNTRIES..... 91-99

Jumabayev Adilbek Bazarbayevich

WAYS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF REGIONAL ECONOMIC POTENTIAL 100-107

<i>Jaxbarov Jamshidbek Tilavoldi o'g'li</i> BUDJET TASHKILOTLARIDA MOLIYAVIY NAZORATNI RAQAMLI TEKNOLOGIYALARNI QO'LLASH ORQALI TAKOMILLASHTIRISH	108-114
<i>Fayzieva Dilyora Shamsitdin kizi,</i> INSTITUTIONAL PRISM OF DIGITAL DIVIDENDS: THE IMPACT OF HUMAN CAPITAL AND "ANALOG COMPLEMENTS" ON THE DYNAMICS OF SOCIO-ECONOMIC INEQUALITY.....	115-123
<i>Турдыев Гайрат Ялгашевич</i> РАЗВИТИЕ АВТОКОЛОНИ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ В УСЛОВИЯХ ТРАНСПОРТНЫХ РЕФОРМ: ИСТОРИЧЕСКИЙ И СОВРЕМЕННЫЙ ЭТАПЫ.....	124-129
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Nodirjon Nizomjonovich</i> SHAHAR AHOLISINING IJTIMOY MUAMMOLARINING IJTIMOY FALSAFIY TAHLILI ..	130-134
<i>Kenjayeva Dilrabo Rominovna</i> INSONIYAT TARIXI VA DINIY BAG'RIKENGLIK	135-139
<i>Karimov Raxmat Raxmanovich</i> СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ МЕЖЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ ФИЛОСОФИИ В ЦИФРОВУЮ ЭПОХУ	140-146
<i>Ergashev Urolbek Berkinovich</i> NAZARIY FALSAFANI TASNIFLASHDA AHMAD TOSHKO'PRIZODA YONDASHUVI.....	147-151
<i>Raximdjanova Dilnavoz Sunnat qizi</i> IBN RUSHDNING TAFAKKUR ERKINLIGI HAQIDAGI QARASHLARI.....	152-155
<i>Abdunazarov Lutfillo Mamanovich</i> YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA URBANIZATSIYA JARAYONLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURATI	156-160
<i>Tangirov Nizom Abduraxmonovich</i> NOOSFERA VA BARQAROR RIVOJLANISH PARADIGMASINING FALSAFIY-METODOLOGIK ASOSLARI	161-166
<i>Yusupova Nargiza Ro'stamovna</i> O'ZBEK ETNOMUSIQASIGA OID TARIXIY MANBA VA MUTAFAKKIRLAR ETNOMUSIQA BORASIDAGI QARASHLARINING FALSAFIY TAHLILI.....	167-172
<i>Xudoykulov Azamat Beshumovich</i> MA'NAVIY BARKAMOL YOSHLAR DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA G'OYAVIY TARBIYANING O'RNI	173-177
<i>Xamdamov Behzod</i> ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR DUNYOQARASHIDA VATANPARVARLIK G'OYALARINING FALSAFIY-TARIXIY ASOSLARI	178-185
<i>Bekchanov Sanjar Ibragimovich</i> "MODERNIZATSIYA" TUSHUNCHASINING IJTIMOY-FALSAFIY MOHIYATI: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA MILLIY KONSEPSIYALAR.....	186-190
<i>Adizov Azim Tolibovich</i> IJTIMOIY KONFRONTATSIYANING TUZILISHI VA DINAMIKASI.....	191-196

<i>Eshmurodov Nabillo</i> GLOBALLASHUV JARAYONIDA SHAXS MA'NAVİYATINING TRANSFORMATSIYASI VA BEGONALASHUV MUAMMOSI	197-201
<i>Yokubov Suxrob Firdavsovi</i> TASAVVUF TA'LIMOTINING G'OYAVIY MANBALARI	202-206
<i>Najimidinova Dilnoza Gulomjonovna</i> GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEK MILLIY OILASINING IJTIMOIY-FALSAFIY MASALALARI	207-210
<i>Otokulov Abror Sobirkulovich</i> JAMIYATDA MA'NAVİY-AXLOQIYLIKNI YUKSALTIRISHDA SHAXS MAS'ULIYATINI OSHIRISH OMILI	211-217

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

<i>Maxamadaliyeva Zuxra Baxrom qizi, Adilova Nasiba Raximboy qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MADANIY METAFORALARNING MOHIYATI	218-222
<i>Xusainova Zilola Yuldashevna, Yangibayeva Surayyo Gulumboyevna</i> DIAXRON KORPUS ALGORITMLARI	223-228
<i>Ruzibayeva Aziza Kahramanovna</i> POLITICAL EXILE AND PERSONAL IDENTITY IN LORD BYRON'S LIFE AND WORK	229-233
<i>Karimova Ozodaxon Avazxon qizi</i> A LINGUO-PRAGMATIC STUDY OF INFORMAL SPEECH IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES: COMPARATIVE ANALYSIS OF COMMUNICATIVE STRATEGIES, SOCIOCULTURAL CONTEXTS, AND PRAGMATIC FUNCTIONS	234-240
<i>Айтмуратова Турсынай Маратовна</i> КОНЦЕПТ «ТРУД» В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ	241-244
<i>Fayzullayeva Zebuniso Abdukarimovna</i> KONYUNKTIVNING SEMANTIK-PRAGMATIK XUSUSIYATLARI	245-248
<i>Sodikova Vasilakhon, Gavharoy Isroiljon qizi</i> THE ISSUES OF INFORMATION SECURITY AND RELIABILITY IN MODERN JOURNALISM	249-258
<i>Холикова Замира</i> СРАВНИТЕЛЬНО-СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФРАЗЕОЛОГИЗМОВ С КОМПОНЕНТОМ-ЗООНИМОМ «СОБАКА» В РУССКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ	259-272

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Турсунова Маликахон Улугбековна</i> СООТНОШЕНИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ РАНГОВ С КВАЛИФИКАЦИОННЫМИ КЛАССАМИ ДОЛЖНОСТЕЙ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СЛУЖБЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ЗНАЧЕНИЯ КЛАССОВ И РАНГОВ В ДИПЛОМАТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ	273-286
<i>Karaketova Dilnoza Yuldashevna</i> JINOYAT SUBYEKTINI TAVSIFLOVCHI BELGI SIFATIDA RETSIDIV	287-294
<i>Мируктамова Феруза Лутфуллаевна</i> ПРАКТИКА ЗАРУБЕЖНЫХ ГОСУДАРСТВ ПО ЗАЩИТЕ ПРАВ И БЕЗОПАСНОСТИ ДЕТЕЙ ОТ ИНФОРМАЦИОННЫХ УГРОЗ	295-300

<i>Xodjiev Yunus Muxitdinovich</i> MULK HUQUQIDAN VOZ KECHISHNING AYRIM MASALALARI.....	301-309
<i>Akayeva Marapat Abduxalikovna</i> FUQAROLIK HUQUQIDA ASSOSSIZ BOYLIK ORTTIRISH: MILLIY VA XORIJIY TAJRIBA ...	310-317
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ENERGETIKA SEKTORIDA ATROF-MUHITGA TA'SIRNI BAHOLASH TIZIMINI SHAKLLANTIRISHNING HUQUQIY SHART-SHAROITLARI.....	318-326
<i>Jiyenbayev Baxadir Ospanovich</i> EKOLOGIK AUDITNI HUQUQIY TA'MINLASHGA DOIR HUQUQIY NORMALARNING ILMIY VA NAZARIY MOHIYATI	327-332
<i>Шомуратова Пальмира Комил қизи</i> РЕАЛИЗАЦИЯ ПРИНЦИПА СОСТЯЗАТЕЛЬНОСТИ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ: ПРЕДЕЛЫ, ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ УСИЛЕНИЯ	333-339
<i>Калдарбеков Асылжан Оспанович</i> РАЦИОНАЛЬНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ И ПРАВОВАЯ ОХРАНА ЗЕМЕЛЬ ЛЕСНОГО ФОНДА: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ ОПЫТ КАЗАХСТАНА И УЗБЕКИСТАНА	340-351
<i>Istamova-Fayzullaeva Dilafruz Oybek qizi</i> SOMATIK HUQUQLARNING NAZARIY TALQINI: GERMANIYA VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY HUQUQIY TAHLIL	352-359
<i>Urakov Djaxongir Rajabovich</i> PROKURATURA ORGANLARINING YOSHLAR O'RTASIDA HUQUQBUZARLIKLAR PROFILAKTİKASINI AMALGA OSHIRISH BORASIDA HAMKORLIK FAOLIYATI	360-365
<i>Байтурова Ауда Набиевна</i> СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ОРГАНИЗАЦИОННО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ЭКОТУРИСТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	366-373
<i>Xushvaqtov O'tkir Temirovich</i> VOYAGA YETMAGANLAR JINOYATCHILIGI TUSHUNCHASI NAZARIY VA QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI	374-382
<i>Mustafaqulov Dilshod Salomovich</i> NORMA IJODKORLIGI JARAYONIDA QONUNIYLIK PRINSIPI	383-389
<i>Nomazov Ixtiyor Ismailovich</i> ISBOT QILISH ELEMENTI SIFATIDA KO'RSATUVLARNI OLDINDAN MUSTAHKAMLAB QO'YISH	390-394
<i>Xoliqnazarov Farhod Bozor o'g'li</i> INTELLEKTUAL MULK HUQUQINI JINOIY-HUQUQIY HIMOYA QILISH MASALALARI ...	395-399
<i>Normuratov Aktam Tulaboy o'g'li</i> OLIY TA'LIM TIZIMIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINI JALB QILISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	400-403
<i>Шомахсудов Шоакрам Шомуратович, Парахатова Шахноза Ерназаровна</i> ОСОБЕННОСТИ ПОЛУЧЕНИЯ ОБРАЗЦОВ ДЛЯ КОМПЬЮТЕРНО-ТЕХНИЧЕСКОЙ ЭКСПЕРТИЗЫ ПРИ РАССЛЕДОВАНИИ КИБЕРПРЕСТУПЛЕНИЙ	404-411
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> O'ZBEKISTONDA ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH VA EKOLOGIK NAZORATNI KUCHALTIRISH MASALALARI.....	412-418

<i>Javliyeva Gullola Abdurahim qizi</i> IJARA MEHNATI — NOTIPIK MEHNAT MUNOSABATLARINING SHAKLI SIFATIDA.....	419-425
<i>Babaeva Irodakhon Erkinjon qizi</i> ISSUES OF IMPLEMENTING INTERNATIONAL LEGAL NORMS IN THE FIELD OF CLIMATE CHANGE INTO THE NATIONAL LEGISLATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	426-434
<i>Ядгаров Шахрух</i> ЮРИДИЧЕСКАЯ ПРИРОДА ШАНХАЙСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ СОТРУДНИЧЕСТВА КАК СУБЪЕКТА МЕЖДУНАРОДНОГО ПРАВА.....	435-439
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING FIZIKA FANIDAN NOSTANDART TOPSHIRIQLARNI BAJARISH ORQALI KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH.....	440-446
<i>Ismaylov Azerbay Saparniyazovich</i> SUN'IY INTELLEKTNING TA'LIMDAGI O'RNI.....	447-451
<i>Xolmirzayeva Gulbahor Baxodirovna</i> MAKTABGACHA TA'LIMDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALARNI MILLIY MODEL BILAN UYG'UNLASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	452-457
<i>Raximova Lolaxon Abduraximovna</i> TALABALARNING KLINIK QAROR QABUL QILISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA BIOFIZIK DIAGNOSTIKA TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATIV O'QITISH METODIKASI.....	458-462
<i>Toshmamatova Munisa Toshmamatovna</i> UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING MAVJUD HOLATI TAHLILI.....	463-466
<i>Raximdjanova Malikaxon Gapurdjanovna, Baybabayeva Shoiraxon Ismatovna</i> INTERCULTURAL COMPETENCE AND REFLECTIVE LEARNING IN GLOBALIZED HIGHER EDUCATION: A BIBLIOMETRIC ANALYSIS.....	467-473

Received: 1 December 2025
Accepted: 15 December 2025
Published: 30 December 2025

Article / Original Paper

HISTORIOGRAPHY OF THE ADMINISTRATIVE AND TERRITORIAL GOVERNANCE OF THE TURKESTAN GENERAL GOVERNORSHIP

Raupova Mushtariybegim Ilhomjon qizi

Andijan State Institute of Foreign Languages

Lecturer at the Department of Social and Humanitarian Sciences, Pedagogy and Psychology

E mail: raupovamushtariy@gmail.com

<http://www.orcid.org/0009-0003-5223-1214>

Abstract. This article analyzes, from a historiographical perspective, the conquest of Turkestan by the Russian Empire in the late nineteenth and early twentieth centuries, the establishment of the Turkestan General Governorship, and its administrative and managerial activities. It summarizes information on the highly centralized nature of the Russian imperial administrative apparatus, as well as on the administrative units of the General Governorship, such as regions, districts, and volosts.

Keywords: Tsarist invasion, Russian administration, Turkestan General Governorship, general governor, native population, district, volost, judicial and legal system, Regulation on the Administration of the Turkestan Region, colony, military administrative governance.

TURKISTON GENERAL-GUBERNATORLIGINING MA'MURIY-HUDUDIIY BOSHQARUVI TARIXSHUNOSLIGI

Raupova Mushtariybegim Ilxomjon qizi

Andijon davlat chet tillari instituti

Ijtimoiy gumanitar fanlar, pedagogika va psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi va uning boshqaruv faoliyati tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil etilgan. Rossiya imperiyasi ma'muriy boshqaruv apparatining o'ta markazlashgan xususiyati, general-gubernatorlikning viloyat, uyezd, volost kabi ma'muriy-boshqaruv bo'g'inlari bo'yicha umumiy ma'lumotlar jamlangan.

Kalit so'zlar: chorizm bosqini, rus ma'muriyati, Turkiston general-gubernatorligi, general-gubernator, tuzem, uyezd, volost, sud-huquq tizimi, Turkiston o'lkasini boshqarish to'g'risidagi Nizom, mustamlaka, harbiy-ma'muriy boshqaruv.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5SI11Y2025N05>

Kirish. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Rossiya imperiyasining Turkistondagi bosqin siyosati o'lka boshqaruv tizimini tubdan o'zgartirdi. Mazkur jarayonlar va ularning tarixshunoslikdagi talqini turli davrlarda turlicha baholangan. Mustamlaka boshqaruvi, ma'muriy hududiy tuzilma, sud tizimi va chor ma'muriyatining siyosiy amaliyoti bo'yicha yaratilgan ilmiy merosni qayta ko'rib chiqish, ularni zamonaviy tarixiy yondashuvlar asosida baholash ushbu tadqiqotning asosiy vazifasidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Turkistonning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi, o'lkada ma'muriy-hududiy boshqaruv tizimining shakllanishi va

mustamlakachilik siyosatining mazmuni ko'plab tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan. Masalaga oid dastlabki ilmiy izlanishlar Rossiya imperiyasi davrida yaratilgan bo'lib, D. I. Romanovskiy [3], V. V. Grigorev [3], A. K. Kaufman [3], N. I. Kraft [4], N. Fioletov [4], Koraş Xon o'g'li [4] kabi mualliflar o'lkada joriy etilgan boshqaruv tizimi, sud-huquq amaliyoti va mustamlaka siyosatining asosiy yo'nalishlarini o'rganganlar. Sovet davri tadqiqotchilari T. Risqulov, G. Safarov, P. G. Galuzo [12], N. G. Pavlov kabi olimlar esa jarayonlarni marksistik tarixnavislik asosida talqin qilib, chor ma'muriyati faoliyatini sinfiy kurash nuqtai nazaridan baholaganlar. Mustaqillik davri tarixshunosligida R. Shamsutdinov, Sh. Karimov [5], H. Ziyoyev [8; 16], N. A. Abdurahimova [14], F. Isaqova [14], N. S. Zaylobiddinov [19] va boshqa tadqiqotchilar Turkistondagi mustamlaka boshqaruvi, ma'muriy-hududiy tizim, sud-huquq siyosati va uning mahalliy jamiyatga ta'sirini qayta ilmiy baholashga alohida e'tibor qaratgan. Shuningdek, F. K. Girs va K. K. Palenning rasmiy hisobotlari [6], o'lkada amalga oshirilgan ma'muriy islohotlar, sud tizimidagi o'zgarishlar va ularning huquqiy asoslarini yorituvchi muhim manba sifatida alohida ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqotda tarixiy manbalarni solishtirma tahlil qilish, tarixshunoslik yondashuvlarini tizimli o'rganish, shuningdek Turkiston o'lkasida shakllangan ma'muriy boshqaruv tuzilmasini fazoviy va funksional jihatdan ko'rib chiqish metodlaridan foydalanildi. Mazkur metodologiya o'lkadagi boshqaruv tizimining shakllanishi, mohiyati va tarixiy baholanish bosqichlarini aniqlashga imkon berdi.

Muhokama. Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning bosib olinishi sobiq sovet tarixnavisligida bir yoqlama talqin etilib, go'yoki mahalliy ziyolilar, shoirlar, olimlar rus istilosiga xayrixoh bo'lgan sifatida ko'rsatildi. Ammo bu talqin noto'g'ri edi. Sababi bizning ziyolilarimiz, shoirlarimiz, olimlarimiz xalq boshidan tegirmon toshi yuritilganda ham mehnatdan, ijoddan to'xtamaganlar [1].

Chor ma'murlari Turkiston o'lkasida dahshatli mustamlakachilik siyosatini olib boradilar. Turkiston XIX asrning oxirlarida V.I. Lenin iborasi bilan aytganda "Xalqlar qamoqxonasi"ga aylangan, Rossiyaning "tipik mustamlakasi" edi. Rus zodagonlaridan A.B. Vrevskiy "Turkiston xalqlari o'zlarini boshqaruvchi va sud qiluvchi yagona hokimiyatga o'rgangan" deb, o'lkada qattiqqo'l mustabid idora zarurligiga ishora qilgan edi [2].

Rus hukmronligi o'rnatilgach, Turkistonda milliy davlatlar yo'q qilinib, o'lkaning siyosiy-ma'muriy tizimi Rossiya manfaatlariga moslashtirilgan holatda shakllantirildi. Yuqori va o'rta bo'g'in boshqaruv lavozimlari rus harbiylari qo'lga topshirilib, tubjoy xalqlar vakillari faqat ijrochi sifatida quyi lavozimlarga tayinlandi. Garchand bu masalada saylov tartiblari joriy etilgan bo'lsada, lekin Rus davlatiga sodiq kishilargina amal kursisiga o'tqazilgan.

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlarning ilmiy tahlili, hozirda tarix fani oldiga qo'yilgan konseptual-uslubiy yondashuvlar asosida ushbu ilmiy adabiyotlarni uch guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida nashr etilgan ilmiy adabiyotlarni kiritish mumkin. Mazkur asarlar sirasiga D.I. Romanovskiy, V.V. Grigoreva, A.K. Kaufman va boshqalarning asarlarini kiritish mumkin [3]. Ushbu asarlarda Turkiston o'lkasining zabt etilishi, ma'muriy boshqaruv tizimining shakllantirilishi hamda Rossiya imperiyasi hukmronligini siyosiy-iqtisodiy jihatdan ta'minlash masalalari yoritilgan.

O'lkada imperiya hukumati tomonidan sud tizimi sohasidagi islohotlarni amalga oshirilishini tadqiq etishga bag'ishlangan asarlar sirasiga N.I. Kraft, N. Fioletova, Qorash Xon

o'g'li asarlarini kiritish mumkin bo'lib, ularda qadimdan o'lkada mavjud bo'lgan sudlov tizimi tarixi va mustamlaka davrida sud tizimi sohasida o'lka viloyatlarida amalga oshirilgan o'zgarishlar, jumladan, dunyoviy sud, qozi va biy sudlarini tashkil etilishi hamda faoliyatlari to'g'risidagi ma'lumotlar tahlil qilingan [4].

Turkiston o'lkasining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi tarixini xolisona yozib qildirgan va o'zining olimlik vijdoniga xilof ish tutmagan rus tarixchilari qatoriga V.V. Bartold, P. Galuzo, A. Popov, V. Lavrentevlarni kiritish mumkin. Ushbu olimlar Turkistonda olib borilgan chorizm siyosati nuqtai-nazaridan ushbu davrga odilona baho berganlar [5].

O'lka sudlov tizimi to'g'risida umumlashtiruvchi ma'lumotlar beruvchi asarlar tarkibiga kiruvchi N.P. Ostroumova, N.S. Likoshin asarlarida o'lkadagi qozilik va biy sudlari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar jamlangan. Jumladan, mualliflar, o'lkadagi sud ishlarini yuritishning etnografik xususiyatlarini inobatga olgani holda ularni qoloq va o'rta asrlarga xos ekanligini, shuning uchun ham imperiya hukumati tomonidan amalga oshirilgan islohotlarning ma'muriy maqsadlarini xaspo'shlashga urinib mustamlakachi ma'muriyatni sud ishlari borasidagi o'zgarishlarni sotsial holatini yaxshilashga xizmat qilmasligiga e'tibor bermaganlar.

Turkiston o'lkasi ma'muriy boshqaruvi va sud-huquq tizimi to'g'risidagi ma'lumotlar o'lkada imperiya hukumati topshirig'i bilan taftish o'tkazib, o'z hisobotlarini taqdim etgan F.K. Girs va K.K. Palenning hisobotlari materiallarida ham o'z aksini topgan [6]. Ushbu hisobotlarning eng muhim jihati ularda Rossiya imperiyasi qonunchiligi nuqtai nazaridan o'lkani ma'muriy boshqaruvida amalga oshirilgan islohotlar, bajarilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar tavsiya shaklida o'z aksini topgan bo'lib, ushbu hisobotlarda juda katta hajmda statistik jadvallar keltirilgan.

Chorizmning O'rta Osiyoda olib borgan siyosatining ayrim qirralari N.S. Kinyapina, M.M. Bliyev, V.V. Degoyev tadqiqotlarida o'z aksini topgan [7].

XIX asrning 70-yillaridan boshlab Turkiston o'lkasida imperiya hukumati tomonidan o'lkani ma'muriy-hududiy boshqaruv va sudlov sohasida amalga oshirgan islohotlar, chora-tadbirlar natijasida ushbu yo'nalishlardagi o'zgarishlar xususida ma'lumot beruvchi ko'plab maqolalar, bildirgilar vaqtli matbuot sahifalarida ham e'lon qilindi.

Turkistonda Chor Rossiyasi ma'muriyatining ishchanlik kayfiyati yuqori ekanligi haqidagi turli taxminlar aytilib, poraxo'rlikka, zo'ravonlikka asoslangan siyosati va "yangi koloniyani ratsional ekspluatatsiya" qilishga noqobilligi haqidagi fikrlar ko'plab keltirilgan. Chorizm Turkistonni "kapitalistik usullar" bilan o'zlashtirishga imkon berishni istamaslikda ochiqdan ochiq ayblangan [8].

Turkistondagi rus ma'murlarini tanqid qilish kampaniyasi Turkistonni boshqarishga doir 1871-1873-yillardagi Nizom loyihalari hukumatga tasdiqlash uchun taqdim etilgandan keyin hamda amerikalik diplomat Yujin Skaylarning O'rta Osiyoga tashrifi (1873-yil martdan noyabrgacha) to'g'risidagi hisobotidan so'ng ayniqsa qizg'in tus oldi. Y. Skayler o'lkadagi rus ma'muriyati ichida katta maoshga ega bo'lish va kattagina boylik ortirish maqsadida bo'lgan kishilar ko'pligini alohida qayd etib o'tadi [9]. Perovski, Avliyoota va Qurama uyezdlarida qayd etilgan poraxo'rlik va g'azna pulini o'g'irlash holatlari hamda Verniy, Xo'jand, Kopal va Perovskiylardagi ma'murlarning o'zboshimchaliklaridan misollar keltirgan.

Turkistonni tabiiy boyliklari va uni boshqarishga qiziqishning kuchayish bilan rasmiy yo'nalishlarga bag'ishlab bajarilmagan. soxta ishlar ham paydo bo'ldi. Bu ishlarning bir qismi O'rta Osiyoni bosib olish, bir qismi esa ma'muriy va mustamlaka tizimi maqsadlariga,

Rossiyaning mintaqadagi mafkuraviy, iqtisodiy va savdo-sotiq imkoniyatlariga, Rossiyaning bu sohadagi hukmronligini ta'minlash usullariga va boshqa holatlarga shubha bildirmaydilar.

N.I. Kraft, V.N. Kaplun, S.N. Tregubov, N. Fioletov, N. Voshinin, V. Gessen va boshqalarning asarlarida Turkistonni boshqarish bo'yicha qonunchilik aktlarni ishlab chiqish jarayoni, sudlov tizimi asoslari, yangi davlat tashkilotlari, moliya tizimini joriy qilish to'g'risidagi aniq ma'lumotlar bayon etilgan, ammo mualliflar o'lkada an'anaviy bo'lgan, chorizm tomonidan saqlanib qolingani ijtimoiy-huquqiy sohalarini har tomonlama tahlil qilishga urinmaydilar. Asosan bu tuzilmalarning o'lkada vaqtinchalik saqlanib qolinishi mahalliy aholi "chorizm afzalliklari"ni qabul qilish darajasiga hali o'sib yetmagani bilan izohlangan.

M.A. Terentevning mustamlakachilik davriga oid rasmiy-monarxik yo'nalishda bo'lgan "O'rta Osiyoni istilo qilish tarixi" nomli asarida muallifning Turkiston amaldorlari va ularning o'lkani boshqarish sohasidagi faoliyatiga munosabati o'z aksini topgan. Muallif sudlov idoralarining mahalliy amaldorlar sodir etgan mudhish jinoyatlariga doir arxiv ma'lumotlardan foydalanib, ma'muriyat rahbarlarining poraxo'rliqi va boshboshdoqligi, mahalliy aholi yerlarining kuch bilan tortib olinishi, g'azna mablag'i hisobiga turli soxta firma va kompaniyalar tuzish haqidagi ko'plab fikrlarni keltiradi. K.P. Kaufman va unga yaqin bo'lgan rahbarlar Sirdaryo viloyati harbiy gubernatori Golovachev, Toshkent shahri boshlig'i Medinskiy, kanselyariya boshlig'i Savenkov, uyezd boshliqlari Guyus, Kolzakov va boshqalar haqidagi tanqidiy materiallar ushbu asarda o'z aksini topgan.

A.I. Dobromislovning "Toshkent o'tmishda va bugungi kunda" nomli tarixiy ocherkida, 1877-yilgi shahar islohoti va uni amalga oshirish jarayoni ko'zdan kechiriladi [10]. Ushbu islohot natijasida amalda Turkiston general-gubarnatorligi markazida qo'shimcha muvofiqlashtiruvchi organ – Duma va Uprava tashkil etilib, ulardagi asosiy o'rinlar mahalliy aholiga emas balki savdogarlar, boylar va tadbirkorlarga berilgan.

Vaqtli matbuot sahifalarida e'lon qilingan maqolalarda Turkiston o'lkasida imperiya mustamlakachi hukumat tomonidan o'lka ma'muriy boshqaruv va huquq tartibot sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va bajarilishi lozim bo'lgan amaliy ishlar tahlil qilingan bo'lib, ularda imperiya ma'muriy boshqaruv sohasida davlat organlarini chora tadbirlari, o'lkadagi mavjud shariat va xalq sudlov tizimi, ularni shakl va usullari, jazo tayinlashning yuridik asoslari, imperiya hukumati amalga oshirgan islohotlarning afzal tomonlari tarixiy sharoit nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Umuman, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida nashr etilgan mavzuga oid ilmiy adabiyotlarda Turkiston o'lkasini geografik joylashuvi, aholining etnik tarkibi, asosiy mashg'ulotlari, O'rta Osiyo xonliklaridagi ma'muriy boshqaruv tizimi, boshqaruv shakllari, boshqaruvning o'ziga xos xususiyatlari, sudlov institutlari, mustamlaka davrida Turkiston o'lkasi boshqaruvi to'g'risida qabul qilingan Nizom va qonun osti hujjatlari, boshqaruvda yangi shakllantirilgan davlat mahkamalarining huquqiy asoslari, mustamlakachi ma'muriyatni o'lkada mavjud bo'lgan boshqaruv, sudlov tizimlariga munosabati to'g'risida juda qimmatli ma'lumotlar ilmiy iste'molga olib kirilgan.

Mahalliy tarixchilardan Muhammad Aziz Marg'iloniy o'z asarida o'sha davrdagi ijtimoiy siyosiy jarayonlarning bevosita ishtirokchisi bo'lganlarning xotiralari va tassurotlari asosida imperiya hukumati vakillarining Farg'ona vodiysi harbiy-ma'muriy boshqaruvida yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklari, Rossiya mulozimlarining mahalliy xalqqa munosabati, ularni va mahalliy boshqaruv mutasaddilari bilan o'zaro munosabatlari, boshqaruv usullari to'g'risida juda

qimmatli ma'lumotlarni keltirgan [11]. Ushbu asarning yana bir muhim jihati – unda boy faktik ma'lumotlar va tarixiy jarayonlarni mantiqiy to'g'ri izohlab berilganligidir.

Mavzuni o'rganishga oid ilmiy adabiyotlarning ikkinchi guruhini sovet davrida yozilib, nashr etilgan ilmiy asarlar, tadqiqotlar va ilmiy maqolalar tashkil etib, ularda ustuvor mafkura ya'ni kommunistik mafkura talablaridan kelib chiqqan holda tarixiy jarayonlar tadqiq etilgan.

XX asrning 20-30-yillari boshlarida tarixchilar yangi-sovet tuzumi sharoitida Turkiston tarixidagi real faktlar va murakkab voqea-hodisalarni ilmiy tushunish borasida dastlabki urinishlarni amalga oshirganlar.

“Xalqlar turmasi”ni buzib, o'rnida “eng insonparvar, eng adolatli jamiyat” qurishga chin dildan ishongan tarixchilar samoderjaviya davrida “yovvoyilarcha ekspluatatsiya”, “qonli jazolar”, talon-taroj va qirg'inlarning ayanchli manzaralarini chizadilar. Bunday mualliflarga misol qilib G. Safarov, T. Risqulov, A. Silonov, S. Muraveyskiy, P.G. Galuzo va boshqalarni 1917-yil fevral inqilobi va oktyabr to'ntarishi tarixiga, oktyabr voqealaridan keyingi milliy ozodlik harakati mavzusiga bag'ishlab yozilgan ishlarini keltirish mumkin.

Qo'qonda e'lon qilingan Turkiston muxtoriyatining sovetlarga qarshi qo'yilishi, Turkistonda muxtoriyatning sovet modeli asosida qurilishiga intilishlari va uning oqibatlari G. Safarov, P.G. Galuzo va P. Alekseyenkoning asarlarida o'z aksini topgan [12].

N.G. Pavlovning XX asr boshlarida chop etilgan “Turkiston tarixi” kitobida ham Rossiyaning sharqdagi siyosatiga muayyan maqsadlar asosida bir yoqlama baho berishga e'tibor qaratgan. Shu bilan bir qatorda O'rta Osiyoda o'troqlashib qolgan ba'zi mualliflar mahalliy xalqlarning madaniy va ijtimoiy hayotini o'z asarlarini birmuncha tushunarli tarzda ifoda etganlarini ham ko'rsatib o'tish zarur.

Mavzuni o'rganishga oid ilmiy adabiyotlarning uchinchi guruhini O'zbekiston Respublikasi mustaqilligi davrida yozilib ilmiy iste'molga olib kirilgan ilmiy adabiyotlar tashkil etadi. Darhaqiqat, mustaqillik davrida respublika tarixchi olimlari tomonidan chor mustamlakasi davrida Turkiston o'lkasi, jumladan Farg'ona vodiysini ma'muriy boshqaruv tizimi, ushbu davrda kechgan siyosiy, iqtisodiy jarayonlarni ilmiy tadqiq etishga qiziqish ortib, bu mavzuda qator ilmiy asarlar nashr qilindi, ilmiy tadqiqotlar olib borildi va ilmiy maqolalar e'lon qilindi [13].

Natijalar. XIX asrning 60-70-yillaridan boshlab chorizmning O'rta Osiyoda olib borgan siyosati Rossiya jamoatchiligining fikr-e'tiborini o'ziga tortdi. Mazkur muammoning turli jihatlarini Turkistonda va Rossiyada nashr etiladigan gazeta va jurnallarda e'lon qilingan ijtimoiy-iqtisodiy va tahliliy materiallarda, maqola va taqrizlarda faol muhokama etila boshlandi [14].

Umuman olganda Chor Rossiyasining Turkistondagi boshqaruv tizimi masalalariga bag'ishlangan adabiyotlar ushbu davrda Turkistonda joriy qilingan mustamlaka davlatchiligi va uning rivojlanish tendensiyalari muammosining ayrim jihatlarini tadqiq qilinishiga, to'plangan bilimlar va erishilgan natijalarning salmoqli ekaniga qaramay, butun O'rta Osiyo mustamlaka davlatchiligining o'ziga xos tarixiy tajribasi, byurokratik xususiyatlari, uning tarixiy bosqichlarda takomillashib borish dinamikasi jiddiy tarzda qayta fikrlashni va keng miqyosda retrospektiv tahlildan o'tkazishni talab qiladi.

Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo hududini bosib olish jarayonidayoq bu yerda o'z ma'muriy tizimini o'rnatib boshlaydi. Shuningdek, o'lkada Rossiya imperiyasi tomonidan o'z davlatchilik belgilari: bayroq, gerb, pullarini joriy etib boshlaydi. Xususan, Toshkent shahri uchun 1866 yildayoq shahar gerbi loyihasi ishlab chiqiladi. Bu loyiha ma'lum bir sabablarga

ko'ra qabul qilinmay qolgan bo'lsa-da, u o'lkada aynan birinchi o'ziga xos geraldikaning shakllanishidagi dastlabki qadam edi.

Ma'lumki, davlatchilikning tarkibiy qismi bu davlat ramzlari hisoblanadi. Davlat ramzlari qatoriga odatda bayroq, gerb va madhiya kiritiladi. Ushbu ramzlar o'zida tarixiy, madaniy, ijtimoiy, milliy ma'lumotlar va qadriyatlarini aks ettiradi. Shu bilan birga, ular davlatchilikning butun bir hayoti, ijtimoiy holati ramzlari sifatida gavdalanadi. Davlat ramzlari ichida gerblar alohida xususiyat kasb etib, tarixiy jihatdan qadimgiroq hisoblanadi. Gerb muayyan mamlakat yoki hududning siyosiy, ijtimoiy va tarixiy xarakterdagi g'oyalari majmuasini, o'ziga xos tabiiy geografik va xo'jalik xususiyatlarini, tabaqaviy tafovutlarini, shaxs, urug' va boshqalarning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgidir. O'z navbatida, gerblar davlatlar, ularning alohida qismlari (viloyat, okrug, shtat, uyezd va h.k.), shaharlar, sulolalar va alohida shaxslarga tegishli bo'lishi mumkin. Gerblarni o'rganuvchi fan bu geraldika deb ataladi. Geraldika maxsus tarixiy fan bo'lib, u ma'lum bir qoidalar asosida tuziladigan ramziy belgilar – gerblarni va ular haqidagi ma'lumotlarni o'rganadi [15].

Tarixiy tadqiqotlarda geraldika metodlarini qo'llash avvalo, manbalarning sanasini aniqlash, ularning qaysi tarixiy davrga oid ekanini, ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Shuningdek, geraldika vositasida u yoki bu manbaning qaysi sohaga tegishliligini, qayerda va kim tomonidan yaratilganligini, qolaversa, qanday ahamiyatga ega ekanligini (hujjatning statusini) aniqlash mumkin. Gerb bilan bog'liq holda tarixiy manbalarni o'rganish, tadqiq etish va ular orqali ma'lum bir davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'daniy ahvolini ochib berish, hukmdorlar, sulolalar, shaxslar, voqealarni davrlashtirish mumkin. Bu bevosita davlatchilik tarixini mukammalroq o'rganish uchun xizmat qiladi.

Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyo hududini bosib olish jarayonidayoq, bu yerda o'z ma'muriy tizimini o'rnata boshlaydi. Shuningdek, o'lkada Rossiya imperiyasi tomonidan o'z davlatchilik belgilari: bayroq, gerb, pullarini joriy qiladi [16].

O'rta Osiyo istilosidan so'ng Rossiya Pyotr I vasiyatini bajarib, jahonning eng yirik imperiyalaridan biriga aylandi. Yevropaning ilg'or jamoatchiligi XIX asr oxirida Rossiyani "beadad miqdordagi mulk o'g'risi", deb ta'riflab, "hisob-kitob vaqti kelganda, u bu mulklarni o'z egalari qaytarishga majbur bo'ladi" deb bashorat qilgan edi. Chor ma'murlari o'lkada dahshatli mustamlakachilik siyosatini olib bordilar. XIX asrning oxirlarida Rossiya imperiyasi mustamlaka hududining kattaligi bo'yicha jahonning qudratli davlatlari Germaniya, Fransiya, Angliya imperiyalari singari buyuk edi. Hattoki mustamlaka maydonining kattaligi jihatdan ushbu davlatlarni ham orqada qoldirdi. Qudratli davlatlarning mustamlaka maydoniga nisbat berilganda, Angliya mustamlaka maydoni 13 million kvadrat kilometr, Fransiyaniki 11 million kvadrat kilometrni tashkil qilsa, birgina Rossiyaning Sibir mustamlaka hududi 13 million kvadrat kilometrni tashkil qilgan [17]. Rossiyaning Turkiston general-gubernatorligi hududi esa kengligi jihatidan Avstriya-Vengriya, Fransiya, Germaniya hududlari maydoniga teng bo'lgan.

Rossiya imperiyasining Turkistonni bosib olishini "O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shilganligini jahonshumul tarixiy ahamiyati"ni yaqin-yaqinlargacha isbotlashga uringan olimlarimiz ham yo'q emas edi. Ular o'z g'oyalarini isbotlash uchun rus bosqinidan so'ng o'lkada ishlab chiqaruvchi kuchlar tez rivojlanib ketdi, kapitalistik munosabatlar shakllanib bordi, sanoat korxonalari vujudga keldi, temir yo'llar qurildi, fan va madaniyat o'sdi, mahalliy xalqlar o'z taqdirini Rossiya xalqlari bilan bog'ladilar, O'rta Osiyo leninizm vatani bo'lib qoldi, deb

isbotlamoqchi bo'ldilar. Jumladan G.A. Xidoyatov “ayni vaqtda O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olinishining o'lkadagi ijodiy o'zgarishlarda namoyon bo'lgan progressiv oqibatlarini tan olmasdan bo'lmaydi”, degan fikrni ilgari suradi. Mantiqan olib qaraganda Rossiya hukumati Turkistonni bosib olishni rejalashtirganda, o'zining manfaatini emas, balki Turkistonda yashab kelayotgan oddiy xalqni, musulmonlarni manfaatini hisobga olganmidi? Rossiya iqtisodiy jihatdan Turkistondan qudratliroq bo'lganligi uchun vatanimiz taraqqiyotiga o'zining ijobiy yordamini berganmidi? Bu davrda AQSH, Germaniya, Yaponiya kabi davlatlar o'z taraqqiyoti jihatdan Rossiyani ancha orqada qoldirib ketgan edi [18].

O'zbekiston respublikasi mustaqilligi yillarida amalga oshirilgan dissertatsion tadqiqotlarda general-gubernatorlarning sirkulyar farmoyishlari va hisobotlari, “Turkiston o'lkasi boshqaruvi to'g'risidagi Nizom”ni tuzish va qayta ko'rib chiqish, ishlab chiqish komissiyalarini tayinlash va tugatish to'g'risidagi materiallar, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari, hisobotlar va yozishmalar; mahalliy aholini Sibirga quvg'in qilish va Sibirdan qaytarish haqida; Saxalin orolidan surgun qilinganlar, Farg'ona viloyatiga yaponlar tomonidan bosib olingandan so'ng kelganligi haqida, harbiy gubernatorlarning mahalliy aholidan turli shaxslarni talonchilik hujumlari uchun harbiy sudga olib kelish to'g'risidagi iltimosnomasi viloyatlar bo'yicha sodir bo'lgan voqealar qayd etilgan [19].

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Turkistonda tashkil qilingan mustamlakachilik tizimining mohiyati chorizmning bosqinchilik siyosati, mustabidchilik, markaz va hudud orasidagi munosabatlarning egosentristik illatlari, shuningdek Rossiya tarixiy rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, uning boshqa tarixiy davrlarda to'plangan mustamlakachilik an'analari va tajribasi bilan belgilanadi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: Содиқов Ҳ., Шамсутдинов Р., Равшанов П., Усмонов Қ. – Тошкент: Шарқ. 2000.
2. Шамсутдинов Р., Каримов Ш., Хошимов С. Ватан тарихи. 1-китоб. – Тошкент: Шарқ. 2020.
3. Романовский Д.И. Заметки по среднеазиатскому вопросу. – СПб., 1869; Григорьева В.В. Русская политика в отношении Средней Азии. – СПб., 1874; Кауфман А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края. – СПб., 1903.
4. Крафт Н.И. Судебная система в Туркестанском крае и степных областях. – Оренбург, 1898; Фиолетов Н. Судопроизводство в мусульманских судах Средней Азии. Суды казиев. – Ташкент, 1910; Кораш Хан Оглы (Иомуд-Хан). Местный суд в Закаспийской области (Народный суд). Историко-критический очерк. – Финляндия, 1914.
5. Каримов Ш., Шамсутдинов Р. Туркистон Русиё босқини даврида. – Андижон: Мерос. 1995.
6. Наливкин В.П. Очерки быта женщин туземного оседлого населения Ферганской долины. – Казань, 1886.; Наливкин В.П. Туземцы раньше и теперь. – Ташкент, 1912.
7. Киняпина Н.С., Блиев М.М., Дегоев В.В. Кавказ и Средняя Азия во внешней политике России (вторая половина XVIII – 80-е годы XIX вв.). – Москва, 1984.
8. Зиёев Ҳ. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгуси. – Тошкент, 2000.
9. Г.Л.Дмитриев. Деша Ю Скайлера и проблемы Среднеазиатской политики царизма 70-х и гг XIX в. Материалы по истории, историографии и археологии. Сб.науч.тр. N 517. Т.,1976.

10. Ахмаджонов Ғ. Россия империяси Марказий Осиёда. – Тошкент: Таълим манбаи, 2003.
11. Муҳаммад Азиз Марғилоний. Тарихий Азизий. (Фарғона чор мустамлакаси даврида). Ш. Воҳидов, Д. Сангирова таржимаси. – Тошкент: Маънавият, 1999.
12. Алексеенков П. Кокандская автономия. В. кн: Революция в Средней Азии. – Ташкент, 1928.
13. Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX аср иккинчи ярми - XX аср охири). 1- умуммиллий илмий йиғини тўплами. – Тошкент: Фан, 2022.
14. Исаков Ф. Национальная политика царизма в Туркестане (1867-1917 гг.). – Ташкент: Фан, 1997.; Очерки по истории государственности Узбекистана. Отв. редакторы Д.А. Алимова, Э.В. Ртвеладзе. – Ташкент: Шарқ, 2001; Абдурахимова Н.А., Рустамова Г. Колониальная система власти в Туркестане во второй половине XIX века - первой четверти XX вв. – Ташкент: Университет, 1999.
15. Абдурахимова Н.А., Эргашев Ф. Туркистонда Чор мустамлака тузуми. – Тошкент: Академия, 2002; Зияев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент: Шарқ, 1998; Зияев Ҳ. Тарих ўтмиш ва келажак кўзгуси (тарихнинг долзарб масалалари). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт, 2000.
16. Ўзбекистон тарихининг долзарб масалалари (XIX аср иккинчи ярми - XX аср охири). 1-умуммиллий илмий йиғини тўплами. – Тошкент: Фан, 2022.
17. Гусарова Т.П., Дмитриева О.В., Филиппов И.С. и др. Введение в специальные исторические дисциплины. - Москва: Изд-во МГУ, 1990.
18. Ўзбекистон Миллий архиви, И-1-фонд, 2-рўйхат, 31655-йиғмажилд, 13-15-варақлар.
19. Бобоматов Т.М. Репрессивные органы как инструмент колониальной политики царской России в Туркестане (1865-1917 гг.): Автореф. дисс канд. истор. наук. – Ташкент, 2006; Зайнобиддинов Н.С. История развития судебной системы Средней Азии в конце XIX - начале XX вв.): Автореф. дисс канд. истор. наук. – Ташкент: 2006.

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ S/11 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil: scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).